



O'ZMU XABARLARI

ВЕСТИНИК НУУЗ АСТА NUUZ

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI ILMIY JURNALI

**JURNAL
1997 YILDAN
CHIQA
BOSHLAGAN**

**2023
1/1**

**Ijtimoiy-
gumanitar
fanlar turkumi**

Bosh muharrir:

I.U.MADJIDOV – t.f.d., professor.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Y.S.ERGASHOV – f-m.f.d., dotsent.

Tahrir hay'ati:

Sagdullayev A.S. – t.f.d., akademik.

Ashirov A.A. – t.f.d., prof.

Balliyeva R. – t.f.d., prof.

Malikov A.M. – t.f.d., prof.

Yusupova D.Y. – t.f.d., prof.

Murtazayeva R.H. – t.f.d., prof.

Mo'minov A.G. – s.f.d., prof.

Nishonova O.J. – f.f.d., prof.

Abdulayeva N.B. – f.f.d., prof.

Madayeva Sh.O. – f.f.d., prof.

Tuychiyev B.T. – f.f.d., prof.

Utamuradov A. – f.f.n., prof.

Muxammedova D.G. – psix.f.d., prof.

Boltaboyev H. – fil.f.d., prof.

Rahmonov N.A. – fil.f.d., prof.

Siddiqova I.A. – fil.f.d., prof.

Sa'dullayeva N.A. – fil.f.d., dots.

Arustamyan Y.Y. – fil.f.d., dots.

Pardayev Z.A. – fil.f.f.d., PhD.

Rofiyeva G.Y. – fil.f.f.d., PhD.

Mas'ul kotib: **Z.MAJID**

TOSHKENT – 2023

МУНДАРИЖА

Тарих

Абдуносирова О. Шоҳрух Мирзо ҳукмронлиги даври маданий жараёнлари ҳусусида	4
Аминова А. Проблемы занятости и пути их решения в Узбекистане (на примере областей Низовья Зеравшана)	8
Болтабаев Б. 1907-1917 йилларда Туркистонни сайлов ҳуқуқидан маҳрум қилиниши	12
Jo'g'ayev B. Shirkatlar tarixiga nazar.....	15
Джурраев Р. Ўзбекистон ССР ташқи савдосида чорва маҳсулотлари	18
Жуманиёзов Ф. XX асрнинг 90 йилларида Ўзбекистондаги демографик вазият (Хоразм вилояти мисолида).....	21
Мамасанидов Л. Халқ таълими соҳасидаги ислохотлар янги босқичда (Наманган вилояти мисолида).....	24
Турабоева Я. Археологик манбаларда Фарғона водийси аёллари тақинчоқлари оид маълумотлар	27
Найтов J. Buxoroda ekologik muammolar va ularni bartaraf etish harakatlari tarixidan	31
Фалсафа. Педагогика. Психология. Методика. Социология. Сиёсий фанлар. Исломшунослик	
Abdullayev S. Social issues and prospects for increasing the employment of new specialists	34
Агалиева Х. Таълим олувчиларда коммуникатив компетентликни шакллантириш технологияси	37
Агзамова Н. Социально-этическая устойчивость в мире после Covid-19	40
Алимбетова Г. Сиёсатшуносликда сиёсий ғоя ва мафқураларга оид илмий назарий ёндашувлар.....	43
Alimuxamedov Sh. Xorijiy davlatlardagi mavjud muhitning mehnat migrantlariga ta'siri va ijtimoiy oqibatlarini	46
Almatayev N. Polimer materiallardan na'muna tayyorlash ko'nikmasini shakllantirish	50
Агарбайева D. Oila psixologiyasida ajrashishning tadqiq etilishi	53
Арзикулов Д. Миллий гвардия ҳарбий хизматчи (ходимлари) касбий маданияти тушунчасининг ижтимоий – психологик жиҳатлари	57
Вахромова G. Eshitishida muammolari bo'lgan o'quvchilarga o'nli kasrlarni o'qitish texnologiyasining ahamiyati	61
Бердикулов С. Янги ўзбекистон сиёсий партиялари мафқураларининг замонавий парадигмадаги концептуал асослари	64
Бойбўриева С. Мактабгача ёшдаги болаларда нутқий мулоқот маданиятини ривожлантириш жараёнини педагогик қўллаб-қувватлаш	68
Боймуродов О., Жаббаров З. Совершенствование организационно-методических основ управления качеством подготовки офицерских кадров	72
Ваниян С. Баскетбол спортида шикастланиш ҳолатини таҳлили ва уни камайтириш йўллари.....	76
G'ofurova S. Reading strategies under the esp approach.....	79
Gulmurodov V. Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ota-onalarning o'rni	82
Давлетярова Л. Барьерчиларнинг югуриш техникасини шакллантириш методикаси	85
Жумаева S. The role of teaching phraseology in english	89
Qodirova N. Bo'lajak tarix fani o'qituvchilarini kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish omili sifatida	92
Zuparova S. Montessori va Valdorf ta'limining o'quvchilar tasavvurini ishlatishdagi bog'liqligi	95
Ibadullaev A. Fizika o'qitish jarayonida talabalarning kasbiy kompetentsiyalarini rivojlantirish haqida	98
Иброхимов С. Фуқаролик жамияти концепциясининг эволюцион назариялари.....	101
Каримов У. Тазқондо ва спорт фаолияти факультетида таълим олаётган талаба-спортчиларни мусобақаларга тайёрлашда ўқув-машғулот ва мусобақадан ташқари омиллар.....	104
Karimova N. Sog'lom turmush tarzi – salomatlik asosi	107
Қодиров Р. Бошланғич синф ўқувчиларида танқидий фикрлашни ривожлантиришнинг нейропедагогик асослари	110
Тураев Б., Қаршиев И. Хожамназар Хувайдо меросида фалсафий дидактик фикрлар талқини.....	114
Qodirova M. Enhancing the grammar competence of language learners	117
Mamutova G. Zamonaviy ta'limni raqamli texnologiyalar yordamida berishning pedagogik zarurati	120
Мансуров М. Бошқарув маҳоратини шакллантиришда сиёсий маданиятни ўрни	122
Марасулов А., Бобожонов Б. Система интеграции дисциплин общенаучных кафедр и специальных дисциплин в формировании компетенций бакалавра биомедицинской инженерии.....	126
Mirg'iyazova M. Benefits of using of information technology in the process of evaluating legal terminology	130
Mukhamedjanova S. Communicative competence is the goal of teaching foreign languages.....	133
Нажмидинов Б. Либерал-демократик партия – Япониядаги етакчи сиёсий куч сифатида	136
Otamuratov R., Otamuratova S. O'smirlarda kasbiy o'zligini anglashiga xavotirlanishning ta'siri.....	140
Parmanov S. Siyosiy madaniyatning tarixiy rivojlanish xususiyatlari	144
Пўлатова З. Нофилологик таълим йўналиши талабаларининг инглиз тилида ёзувни баҳолаш таҳлили ва натижалари	148
Рузметова Н. Онлайн методы в образовательном процессе юридических техникумов.....	152
Рустамалиев М. Тараққиётнинг ҳозирги босқичида сиёсий бошқарувга эҳтиёжнинг кучайиши	156
Тюкмаева А. Осмысление результатов лингвистического поворота в герменевтическом корпусе социально-гуманитарных наук	159
Умиров Х. Академик лицей талабалари учун физик жараёнларни моделлаштириш асосида ўқув жараёнида дастурлаш тилларидан фойдаланиш усуллари.....	162
Fayziyeva M. Shaxs psixologik himoya mexanizmi shakllanish omillari.....	166
Файзиева О. Решение некоторых ошибок недостатков в физическом воспитании и спорте вузов и всех образовательных учреждений	170
Хамракулов З. Роль уголовного права в формировании профессиональной компетенции студентов	173
Хасанов А. Жисмоний тарбия ва спорт соҳаси мутахассисларида фуқаролик компетенциясини ривожлантириш масалалари.....	177
Хашимова С. Эмоционал зўриқишни таҳлил этишининг психологик таснифи	179

Хожаева М. Бўлажак хорижий тил ўқитувчиларида таржима материаллар билан ишглашда «Факт-чекинг» кўникмаларини ривожланиш модели.....	183
Хужаев М. Асрларни ошиб ўтган тафаккур соҳиби	187
Хо'jaqulov E. Umumiy o' rta ta' lim maktablarida chizmachilik fanini o' qitishda fazoviy tasavvurni shakllantirishning zamonaviy usullari	190
Xushmatova G. Yoshlarda ma'naviy uyg' oqlik va tafakkur sog' lomligi masalasi	193
Шадиметова Г. Ўзбекистонда кечаётган ижтимоий ва маънавий ўзгаришларнинг миллий байрамлар билан диалектик алоқадорлиги.....	196
Шермухамедова Н. Ёш гандболчиларни мусобақа фаолияти тизимини акс эттирувчилари ва ундаги ўзига хос хусусиятлар	199
Shirinoва R., Rofieva G. Oliy ta' lim muassasalarining xalqaro reyting natijalari tahlili	202
Юлдашева Ф. Совершенствование профессиональной подготовки студентов на основе последовательности	207
Филология	
Abdugaffarova G. Badiiy dialogning pragmalingsvistik talqini	209
Аслонов И. “Бобурнома” да ҳукмдор этикети ва сиёсий иерархия бадий психологик тасвири	212
Ачилова Н. Жонзот номлари билан боғлиқ фразеологизмларнинг немис ва ўзбек тилларида қўлланилиши	215
Vaxratova Z., Akhmedova M. The characteristic features of the main characters in “Nicholas Nickleby” by Charles Dickens	218
Vaxronova D. Lison, kognitiv ong va olam manzarasi	221
Bozorova G. Siyosiy nutqda qo' llangan pleonastik birliklarning lingvopragmatik xususiyatlari	224
Jalilova L., Xaydarova N. Badiiy personaj-obraz – asar markaziy elementi sifatida	227
Jumaboyev O. Ramz va majoz:rivojlanish tendensiyalari va qonuniyatları	230
Ibragimova N. “Tafakkur”, “diskurs” va “matn” tushunchalarining lingvistik tahlili	234
Isroilova N. Feminizm va modernistik nasrning intertekstual aloqalari.....	237
Kamalova D. Classification of phonetic terms in english, russian and uzbek languages.....	240
Kendjaeva Z. Formation of non-verbal vocabulary.....	243
Kurbonmurotov A. Lingvistik ekspertizada “ekstremistik matn” kategoriyasi	246
Majitova A. Non-equivalent lexicons in Kinship terms.....	250
Mamanazarova G. The false friends in translation in uzbek and english languages through the russian language	253
Mamatjanova N. Is'hoqxon Ibratning “Tarixi Farg'ona” asari	256
Maxmudova M. S.Salimov ijodida sharq g'arb mavzusi va “Mag'ribu mashriq” devoni tarjimasining o'rmi	260
Mirzababaeva K. Norms of speech etiquette	263
Раджабов Н. Ўзбек ва инглиз тилларида унли фонемаларнинг ўзига хослиги	266
Saidova N., Akhmedova M. Linguistic means of different levels in the implementation of the category of expressiveness in the stories of Katherine Mansfield.....	270
Тухтасинова Н. Ўзбекча-французча агиографик терминлар луғати яратишнинг замонавий тамойиллари	273
Xaydarova N. Badiiy personaj-obraz – asar markaziy elementi sifatida	276
Xalilova D. Fyodor Dostoyevskiy asarlarida jinoyat va jazo motivi paydo bo' lishining hayotiy asoslari	279
Хакбердиева Г. Эмоционал нуткий фаолиятнинг асосий кўрсаткичлари	282
Choriyeva A. Sahifani varaqlagan sari, tubsizlik kishiga she' riyatning mohiyatini anglatadi.....	285
Yusupova M. Tarjimashunoslikda uchraydigan dolzarb muammolar	288
Yusufova L. Formal-functional features of verb phrases based on the analysis of parallel corpus (on the example of english-uzbek texts).....	291



Muattar MAXMUDOVA,
BuxDU Nemis filologiyasi kafedrasida katta o'qituvchisi
E-mail: mmuattar1976@mail.ru

Buxoro davlat universiteti dotsenti, PhD M.B.Ahmedova taqrizi asosida

**S.SALIMOV IJODIDA SHARQU G'ARB MAVZUSI VA "MAG'RIBU MASHRIQ" DEVONI TARJIMASINING
O'RNI**
Annotatsiya

Sharq adabiyoti o'zining turfa betakror adabiy shakl va janrlari bilan, ularda ifodalangan yuksak umuminsoniy tuyg'ularga to'lib toshgani bilan shuhrat qozonib, uzoq asrlardan buyon dunyoning ko'plab xalqlariga ma'naviy turtki berib kelmoqda. Nemis adabiyoti garchi G'arb adabiyotiga daxldor bo'lsa-da, unga ham Sharq adabiyoti an'analari ta'siri borligi kuzatiladi. Xuddi shu jihat Sadridin Salim Buxoriyning Gyote ijodiga, ayniqsa, uning o'zi uchun ham ruhan yaqin bo'lgan Hofiz she'riyati hamda tasavvuf adabiyotiga ergashib yozilgan "G'arbu Sharq devoni"ni tarjima qilishga katta qiziqish uyg'otdi. Mazkur maqolada S.Salimov ijodida Sharqu G'arb mavzusi va "Mag'ribu Mashriq" devoni tarjimasining o'rnini borasida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Yohan Volfgang Gyote, Mag'ribu Mashriq, G'arbu sharq, tarjimon, mutafakkir, ijod, mavzu, devon, motiv, so'fiylik.

В ТВОРЧЕСТВЕ С. САЛИМОВА ТЕМА ВОСТОК-ЗАПАД И РОЛЬ ПЕРЕВОДА КНИГИ «ЗАПАДНО-ВОСТОЧНОГО ДИВАН»
Аннотация

Восточная литература прославилась своими неповторимыми литературными формами и жанрами, наполненными выраженными в них высокими общечеловеческими чувствами, и на протяжении веков давала духовный импульс многим народам мира. Хотя немецкая литература связана с западной литературой, замечено, что она также находится под влиянием восточных литературных традиций. Тот же аспект вызвал большой интерес в переводе Садриддином Салимом Бухари сочинений Гёте, особенно «Гарбу Шарк Диван», написанного по мотивам поэзии Хафиза и духовно близкой ему суфийской литературы. В данной статье рассматривается роль темы Восток-Запад и перевод книги «Магрибу Машрик» в творчестве С. Салимова.

Ключевые слова: Иоганн Вольфганг Гёте, Магриб Машрик, Запад-Восток, переводчик, мыслитель, творчество, тема, почитание, мотив, суфизм.

**IN THE WORK OF S. SALIMOV, THE THEME OF EAST-WEST AND THE ROLE OF THE TRANSLATION OF
THE BOOK "WEST-EAST DIVAN"**
Annotation

Eastern literature became famous for its unique literary forms and genres, filled with high universal feelings expressed in them, and for centuries gave a spiritual impulse to many peoples of the world. Although German literature is related to Western literature, it has also been observed to be influenced by Eastern literary traditions. The same aspect aroused great interest in Sadridin Salim Bukhari's translation of Goethe's writings, especially "Garbu Shark Divan", written based on the poetry of Hafiz and Sufi literature spiritually close to him. This article discusses the role of the East-West theme and the translation of the book "Maghibu Mashrik" in the work of S. Salimov.

Key words: Johann Wolfgang Goethe, Maghreb Mashrik, West-East, translator, thinker, creativity, theme, reverence, motif, Sufism.

Kirish. Shoir va tarjimon Sadridin Salim Buxoriy nemis tili mutaxassisligini egallash maqsadida uni chuqur o'rganishga bel bog'lar ekan, avvalo, shu tilda ijod qilib, ona tilining nufuzini o'z durдона asarlari bilan dunyo miqyosiga ko'targan, shu asosda uni katta mehr bilan ardoqlashini isbotlagan mutafakkir shoir I.V.Gyote ijodini sevib o'rgandi. U Gyoteni faqat ijodkor sifatida emas, balki mohir tarjimon sifatida ham e'zozlab, o'zining Gyote bilan ma'nan va ruhan ichki yaqinligini chuqur his qildi. Buni tarjimonning Gyote ijodini ilmiy-ijodiy o'rganish borasidagi ko'p yillik ijodiy mehnati va erishgan natijalari asosida dalillash mumkin, albatta.

Sadridin Salim Buxoriyning mutarjimlik sohasidagi mahorati olmonlarning mashhur shoiri Yohan Volfgang Gyotening "Mag'ribu Mashriq" devoni tarjimasini amalga oshirish jarayonida yanada yuqori cho'qqiga erishdi, deyish mumkin. Chunki shoir uni o'zbek tiliga bevosita nemis tilidan

o'girdi. (Bu haqda ishimizning uchinchi bobi ikkinchi faslida batafsil to'xtalamiz).

S.Salimov ijodida G'arbu Sharq mavzusi va obrazi hamisha bo'rtib turadi. Buning yaqqol isbotini shoimning quyidagi misralari ham tasdiqlay oladi:

Yakka odam haq bo'lishi mumkin,

Yakka Odam xalq bo'lishi mumkin.

Yakka Odam G'arb bo'lishi mumkin,

Yakka Odam Sharq bo'lishi mumkin.

Ko'rinyaptiki, S.Salimov ushbu misralarida Haq // Xalq // G'arb // Sharq so'zlarini o'zaro muvoziy qo'llab, mantiqiy parallelizmi hosil qilmoqda.

Shoir "G'arbu Sharq devoni" tarkibida keltirilgan "Jaloliddin Rumiy so'zi" she'ri[1] bir o'rinda ulug' shoir tilidan quyidagi e'tirofni keltiradi:

G'arb ham o'zim, Sharq ham o'zim,

Nohaq o'zim, haq ham o'zim[2].

Yana bir o'rinda G'arbnig Sharqdan, Sharqning esa G'arbdan o'rgangani ta'kidlangan:

Qolib Rumi, Navoiy, Halloj,
O'rganmasdan Bedilni,
Singdiribman, onnga, ajabo,
Feyerbax, Kant, Gegelni.
Gegeldan men Rumiya keldim,
Keldim Naqshbandiyaga,
Vaholanki, Rumiyan Gegel
Oziq olgan miyaga.
Boshim tegdi G'arb devoriga,
Neni izlab yelibman?
Men mashriqlik Sharqdan G'arbgamas,
G'arbdan Sharqqa kelibman[3].

S.Salimov – "G'arbu Sharq devoni"ning o'zbek tarjimonlaridan biridir. U nemis tili mutaxassisi bo'lganligi tufayli bu asar muallifi Gyotening she'riy olamini yaqindan anglay oldi. Shuning uchun unga bu asarning yana bir o'zbek tarjimoni Maqsud Shayxzodaga nisbatan yoki Gyotening yana bir mashhur asari – "Faust" tarjimoni E.Vohidovdan ko'ra, "G'arbu Sharq devoni"ning sharqona ruhini ifodalash va o'quvchilarga yetkazish sal oson kechgani ayonlashadi.

Sharqona madaniyat, islomiy qarashlar asosida o'sib-ulg'aygan shoir-tarjimonga orttirgan tasavvufiy bilimlari ham yaqindan yordam berdi. Shuning uchun S.Salimovga nemis shoiri Gyote tomonidan "G'arbu Sharq devoni"da o'ziga xos tarzda talqin qilingan Qur'on motivlari, so'fiylik g'oyalari "ochish" u qadar qiyin kechmadi. Lekin Gyote favqulodda keng tafakkur egasi va Sharq dunyoqarashining buyuk ixlosmandi bo'lsa-da, baribir g'arb dunyoqarashi vakili edi. Shu sababdan uning devonida sharqona motivlar g'arbona she'riyat texnikasi va tamoyillari asosida ifodalangani sezilib turadi.

Ma'lumki, Gyotening "G'arbu Sharq devoni" turli tillarga tarjima qilingan. Ingliz, rus kabi bunday tarjimalar orasida devonning o'zbekcha tarjima variantlari ham borligi quvonarlidir. Bunda o'zbek tarjimonlari Sharq xalqlarining madaniyati, urf-odatlari, muhiti, sharq ruhini yaxshi bilganlari uchun boshqalarga qaraganda birmuncha muvaffaqiyatli tarjimaga erisha olganlar. Ammo bu muvaffaqiyat ba'zi o'rinlarda nisbiyligi anglashiladi. Jumladan, devon tarjimasining ayrim o'rinlarida adekvat tarjimaga erishilmaganini inkor etib bo'lmaydi. Bu holat iste'dodli shoir

va mutaxassis-tarjimon bo'lishiga qaramay, S.Salimovda faoliyatida ham kuzatiladi. Bu esa devonning murakkab mazmun va shakliga egaligi bilan bog'liqdir.

Gyotening "Qo'shiqchi kitobi"dagi "To'rt manfaat" she'rini o'zbek tarjimoni N.Muhammadiev Qur'oni karim asosida to'g'ri yetkaza olganligini alohida ta'kidlash lozim.

Gyote sharq xalqlarining urf-odatlarini yuksak qadrlagan, u ko'chmanchi badaviylar hayotini va islomgacha bo'lgan "Moallakat" she'riyatini o'rgangan, shu bois arablarning turmush tarziga bag'ishlangan "To'rt qul" she'ri qiziqarli o'qiladi. Bu she'r "To'rt azhib sovg'a" nomi bilan N. Muhammadiev tarjimasida nashr etilgan. Unda Alloh taoloning arabga bergan to'rtta "mol"iga ishora qilinadi. Birinchidan, bu salla, muqaddas libos, balki kafandir. Shariatga ko'ra, har qanday musulmon kafanga o'ralgan holda dafn etilishi kerak, kafansiz dafn qilish katta gunoh hisoblanadi, shuning uchun salla jangchilar va ko'chmanchilar uchun kafan o'rmini egallagan. Ikkinchidan, bu hamma joyda o'rnatilishi mumkin bo'lgan chodir. Uchinchidan, bu qilich devordan qattiqroq va dushmanlardan himoya qiladi. To'rtinchidan, bu har qanday ayolni o'ziga jalb qila oladigan qo'shiq. Tarjimon N.Muhammadiev she'r mazmuniga chuqur kirib, uni o'zbek tilida yetarlicha takrorlay olgan. Uning badiiy shaklidagi tarjimasini ashiyatga mos keladi, chunki asl nusxada ab, ab qofiyasi tanlangan.

A.Allaberganov (60:97) fikricha, N.Muhammadiev asl nusxadan tarjima qilmagan, balki V.Levik tarjimasidan foydalangan. Shunday bo'lsa-da, unda Gyote intonatsiyasi, bayt va ritmi, Gyote qo'llagan an'anaviy sharqona atributlar, milliy obrazlar to'g'ri aks ettirilgan. "To'rt qul" she'rida "Salla – toj, chodir – devor, qilich – panjara, qo'shiq – harf" degan arab maqoliga asoslanilgan. Gyote bu maqolning mazmunini ochib beradi.

Gyotening she'riy satrlarida esa hayotni tasdiqlovchi pafos singib ketgan.

N.Muhammadiev ham M.Shayxzoda kabi V.Levikga ergashib, Gyote she'rining asosiy g'oyasini qamrab olishga muvaffaq bo'lgan.

S.Salimov tarjimasida Hofizga Gyotening e'tiqodi, unga "pir", o'zini esa "murid", "izdosh", "Shayx Pir shogirdi" hisoblashi, oralaridagi xayoliy "ustoz" va "shogird"lik tushunchalari tasavvufning qoidalari asosida yoritilgan:

Asliyatta	V.Levikda	S.Salimovda
Und mag die ganze welt versinken Hafis, mit dir, mit dir allein! Will ich wetteiferen! Lust und Pein Sei uns der Zwillingen gemein! Wie du zu lieben und zu trinken, Das soll mein Stolz, mein Leben sein[4].	И что мне сельый мир? Судьбою Тебе да угодилось я! Хафиз, мы будем как друзья! Хафиз, боль и радость бытия, Любовь и хмель пройдут с тобою, И в этом счастье – жизнь мой[5].	Menga olam g'ami bilki, abasdur, Ayo, Hofiz! Agar sen birla bo'lsam, Ki, faxru iftorim sen, havasdur Seningdun g'am chekib, sen kabi kulsam. Murodim may ichib sen birla bahsdur. Seningdek sevamanu so'ng mavli o'lsam[6].

Ko'rinyaptiki, V.Levik tarjimasida Hofiz bilan do'stlashish ma'nosi anglatilmoqda. Bu esa Gyote she'rining asl ma'no-mazmuniga to'liq mos kelmaydi. Chunki Gyote Hofizni o'ziga ustoz, o'zini esa undan o'rganuvchi shogird qiyofasida berishni ko'zda tutgan.

Keltirilgan yuqoridagi parchada "ganze", "versinken", "Zwillingen" so'zlari ham unchalik to'g'ri tarjima qilinmagan. S.Salimov esa bu o'rinda asliyattadagi bu kabi so'zlarning sinonimik variantlarini, mos ekvivalentlarini topib, shu orqali adekvat tarjimaga erisha olgan. Parchadagi "Und mag die ganze welt versinken" misrasini tarjima qilishda S.Salimov "g'ami abasdur" ("behuda yig'lash") birikmasini kiritib, tarjimaning semantikasiga putur yetkazmagan holda uni tovush jihatidan asl nusxaga yaqinlashtirgan. U asl matnda "may" so'zi bo'lmasa-da, tasavvufga xos "may", "ishq", "abadiylik" kabi tasavvufiy tushunchalarni keltirib, asar mazmunini ochishga harakat qilgan. Mastlik holatida insonlarning Haqqa erishishi, inson o'zi uchun abadiylik eshiklarini ochishi tasavvufiy ruhda yoritilgan. Shu asosda

shoir-tarjimon Gyote va Hofizning "muhabbat" bilan birlashgan do'st, Piru Murshidlar ekanini ta'kidlagan.

Umuman aytganda, S.Salimov o'z tarjimasida shakl va mazmun birligini saqlab qola olgan. Bunda uning shoirligi ham yordam bergan. To'g'ri, ba'zan tarjima shaklining asl nusxadan hajmi jihatidan qisman farq qilishi kuzatiladi. Lekin S.Jabborov haqli e'tirof etganidek, I.V.Gyote she'ri ayrim kamchiliklarga qaramay, shoir-tarjimon S.Salimov tomonidan o'zbek tiliga adekvat tarjima qilingan. Eng asosiysi, u Gyote asarining islom ruhi bilan sug'orilganini ko'rsata bilgan.

Asar ma'nosi ichki jihatdan "jannat" mavzusi bilan ham bog'langan. Bu mavzu devonning asosiy mavzularidan biridir. Gyote fikricha, "jannat ostonalariga uchib borish", "abadiylikka erishish" uchun, eng avvalo, donishmandlik bilan xalqqa xizmat qilish, xalq baxti uchun jonini fido qilishga tayyor bo'lmoq lozim. Bu g'oya "G'arbu Sharq devoni"ning "Kirish" qismidan boshlanib, so'nggi kitobi – "Jannat kitobi"da yanada chuqurlashtirilgan. Agar devonda "Hijrat" she'ri muqaddima bo'lsa, "Jannat kitobi" epilogdir. Unda o'zga olamga borgan insonni jannat darvozarlarida qorovul

bo'lib turgan go'zal hurlar savol-javob qiladi. Ular iymon uchun kurashda jon fido qilgan, payg'ambarga fidoyi bo'lgan, butun umri davomida haqiqat, ezgulik va adolatni himoya qilishga intilgan kishilargagina mangu hayotga yo'l ochadi.

Xuddi shunday Gyote jannat eshiklarini taqillatib borganda, hurlar uning ham Ollohga sodiqligini tekshiradi. Shunda shoir quyidagicha javob beradi:

Asliyatta	V.Levikda	S.Salimovda
Nicht so vieles Federlesen Lass mich immer nur herein; Denn ich bin ein Mensch gewesen, Und dass heisst ein Kämpfer sein[7].	Распахни врата мне шире, Не глумись над пришлецом, – Человеком был я в мире, Это значит – был борцом[8].	Takallufsiz gaplar deding, Benafdur yo'lim tusmoq, Men haqiqiy Inson edim, Qurashuvchi – bu demak[9].

Bunda S.Salimov "Lass mich immer nur herein", ya'ni "Manga kirishga ruxsat ber" mazmunidagi iltimos ohangli misrani "Benafdur yo'lim tusmoq" deya, ogohlantirish mazmunida, sokin ohangni ko'tarinki ohangga o'zgartirib ifoda etgan. Agar ushbu tarjima asliyat bilan solishtirilsa, undagi so'zlar asl nusxaga mos kelmasligi ma'lum bo'ladi. Lekin, tarjimon asliyatga ijodiy yondashgan va ma'noni saqlab qolgan.

Xulosa takliflar. qilib aytganda S.Salimov – nemis, rus, fors-tojik shoirlari ijodidan ko'plab she'riy tarjimalar qilgan

mutaxassis-tarjimon. She'riy tarjima esa murakkab jarayon. Bunda "mutlaq tarjima"ga erishish har qancha qiyin bo'lmasin, S.Salimov o'zi bevosita shoir va mutaxassis tarjimon sifatida buning uddasidan chiqdi. She'riy tarjima me'yorlarini bilgan shoir va tarjimon S.Salimov aksaran hollarda adekvatlikka erisha olgani kuzatiladi. Sadriddin Salim Buxoriyning bevosita nemis, rus, fors-tojik tillaridan qilgan dastlabki tarjimalari turli gazeta va jurnallarda e'lon qilingan, adabiy jamoatchilik tomonidan iliq kutib olingan.

ADABIYOTLAR

1. Садриддин Салим Бухорий. Ҳикматдир дунё. Сайланма. – Тошкент: "Ф.Ғулом", 2011. – Б. 229.
2. Садриддин Салим Бухорий. Ҳикматдир дунё. Сайланма. – Тошкент: "Ф.Ғулом", 2011. – Б. 101..
3. Садриддин Салим Бухорий. Ҳикматдир дунё. (Шеърлар ва ғазаллар). – Бухоро: "Бухоро", 2002. – Б.92
4. Johann Wolfgang von Goethe. West – östlicher Divan. Stuttgart.
5. Левик В.В. Гёте. Из "Западно – восточного дивана" Изд. М. "Наука" Москва. 1988.-С. 29
6. Йохан Вольфганг Гёте. Ғарбу Шарқ девони./ Олмон тилида Садриддин Салим Бухорий таржимаси. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти. Тошкент. 2010 – Б. 29
7. Johann Wolfgang von Goethe. West – östlicher Divan. Stuttgart.
8. Левик В.В. Гёте. Из "Западно – восточного дивана" Изд. М. "Наука" Москва. 1988.-С. 32
9. Йохан Вольфганг Гёте. Ғарбу Шарқ девони./ Олмон тилида Садриддин Салим Бухорий таржимаси. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти. Тошкент. 2010 – Б. 36